

ARAB TILINI O`RGATISHDA TINGLAB TUSHUNISH KO`NIKMASI AHAMIYATI VA UNI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR

Norboyev Zafar Abdumuminovich

Samarqand davlat chet tillar instituti Yaqin sharq tillari kafedrası o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6963857>

Annotatsiya. Ushbu maqola xorijiy tillarni, xususan arab tilini o`qitishda tinglab tushunish ko`nikmasining ahamiyati, vazifalari va maqsadlari, uni shakllantirishda nimalarga e`tibor qaratish kerakligi va yuzaga keladigan qiyinchiliklar va qiyinchiliklarni bartaraf etish bo`yicha ko`rsatmalar berilgan. Shuningdek, tinglab tushunish ko`nikmasi bo`yicha arab tilidagi kitoblarda keltirilayotgan mashqlarning tahliliy mulohazalari va ularni rivojlantirish bo`yicha ba`zi ko`rsatmalar berilgan.

Kalit so`zlar: CEFR, A1, A2, B1, B2, C1, C2, tinglab tushunish, nutqni idrok etish, eshitish xotirasi, ichida gapirish, solishtirish va bilib olish, antisipatsiya, mantiqan tushunish, تجارب حياتية, الإستماع و الفهم.

ВАЖНОСТЬ НАВЫКОВ ВОСПРИЯТИЯ НА СЛУХ ПРИ ОБУЧЕНИИ АРАБСКОМУ ЯЗЫКУ И ФАКТОРЫ, КОТОРЫЕ ЕГО РАЗВИВАЮТ

Аннотация. В данной статье даны указания о важности, задачах и целях навыка аудирования при обучении иностранным языкам, особенно арабскому, на что обращать внимание при его формировании, и как преодолевать трудности и трудности, которые могут возникнуть. Также даны аналитические комментарии к приведенным в учебниках по арабскому языку упражнениям на навыки аудирования и некоторые указания по их развитию.

Ключевые слова: CEFR, A1, A2, B1, B2, C1, C2, аудирование, восприятие речи, слуховая память, говорение, сравнение и обучение, предвосхищение, логическое понимание, تجارب حياتية, الإستماع و الفهم.

THE IMPORTANCE OF LISTENING COMPREHENSION SKILLS IN TEACHING ARABIC AND THE FACTORS THAT DEVELOP IT

Abstract. This article provides instructions on the importance, tasks and goals of listening comprehension skills in teaching foreign languages, especially Arabic language, what to pay attention to in its formation, and how to overcome difficulties and that may arise. Analytical comments on the exercises given in Arabic language books on listening comprehension skills and some instructions on their development are also given.

Key words: CEFR, A1, A2, B1, B2, C1, C2, listening comprehension, speech perception, auditory memory, speaking in, comparing and learning, anticipation, logical understanding, تجارب حياتية, الإستماع و الفهم.

KIRISH


Bugungi kunda xorijiy tillarni o`qitish va o`rgatish zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirilishi, o`z samarasi va natijasini berayotganini ko`rishimiz mumkin. XX asrning so`nggi o`n yilligida xorijiy tillarni o`qitish sohasida yangi loyiha CEFR (The Common European Framework of Reference for Languages) Yevropa ma`lumotnomasining joriylanishi tub o`zgarishlarga olib keldi. Dastlab ingliz va fransuz tilida CEFR talablari joriy qilinishi va ko`zlangan maqsadga erishilgandan so`ng, hozirgi kunda 40 ga yaqin g`arb va sharq tillariga tarjima qilindi va joriy etildi. CEFR xorijiy tillarni o`rganish va o`rgatishda daraja va mezonlarni

ilgari suradi. CEFRda xorijiy tillarni o`rganishda 6 ta ya`ni boshlang`ich daraja A1 va A2, erkin daraja B1 va B2, professional daraja C1 va C2 darajalar mavjud. CEFR mezonlari asosida yaratilgan o`quv materiallari til o`rganuvchilariga to`rtta eshitish, o`qish, yozish va gapirish ko`nikmalarini ketma-ket o`rganishni taklif etadi. CEFR ko`nikmalari orasida eshitish ko`nikmasi til o`rganuvchi biron-bir xorijiy tilni o`rganish davomida olinadigan axborotning taxminan 60%ni eshitish orqali qabul qiladi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Inson tinglab tushunish orqali atrofidagi boshqa shaxslardan juda ko`p axborotlar oladi. Xorijiy tillarni o`rganishda zamonaviy metodik yondashuvlarga asosan tinglab tushunish ko`nikmasi eng muhim ko`nikma hisoblanmoqda. XX asrning 60 yillariga kelib, tinglash nutq faoliyatining turi sifatida atroflicha tadqiq etila boshlandi. O`sha vaqtga qadar tinglashga gapirishning uzviy qismi sifatida qaralib kelinardi. CEFR mezonlari joriy qilinishiga qadar tinglash ko`nikmasini shakllantirish va rivojlantirish uchun alohida mashqlar tizimi berilmas edi. Ko`plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko`rsatdi-ki, xorijiy tillarda gapirishdan ko`ra tinglab tushunish ko`nikmasini o`rganish biroz murakkab kechishi isbotlandi. Xorijiy tilda ifoda vositasi va ifodalanmish matn uyg`unlashishi qiyin kechadigan jarayondir. Ifodalanayotgan matn mazmunini til o`rganuvchi yaxshi ilg`ashi uchun unda tinglab tushunishning leksik va grammatik ko`nikmalari puxta shakllangan bo`lishidan tashqari, o`sha xorijiy tilning tovush, tovush birikmalari va ohanglarni farqlay olish ko`nikmasi ham yaxshi shakllangan bo`lishi kerak. Agar yuqoridagi ko`nikmalar til o`rganuvchida yaxshi shakllanmagan bo`lsa, tilga oid shakliy, matn mazmuniga, nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi, nutq shakliga, tilshunoslik nuqtai nazaridan sodir bo`ladigan va audiomatn tuzulishiga oid qiyinchiliklarga duch keladi.

Hozirgi kunda dunyoning turli davlatlarida arab tili xorijiy til sifatida maktablarda, o`rta maxsus va oliy ta`lim muassasalarida o`qitilmoqda. Uzoq yillar davomida arab tili an`anaviy uslubda o`rgatildi. Bu til o`rganuvchilarning arab tilining leksik va grammatik jihatini o`rganishi bilan chegaralandi. Tilning boshqa ko`nikmalarini o`rganishida biroz qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo`ldi. CEFR tilni kommunikativ yondashuv asosida o`rganishni ilgari suradi. Kommunikativ yondashuvda til o`rgatuvchi va o`rganuvchi o`rtasida doimiy muloqot bo`lishi zarur. Muloqot orqali tilni o`rganishda tinglab tushunish ko`nikmasi asosiy o`rinni egallaydi. Tinglab tushunish uch bosqichli faoliyat hisoblanib, ular akkustik appersepsiya (eshituv idroki), fonematik (so`zlarning tovush tomonini farqlash) va mohiyatni anglash orqali nutqdagi mazmun idrok etiladi va tushuniladi. Tinglash uchun matn tanlashda til o`rganuvchilarining yoshi, ularning umumiy qiziqishi, matnning mantiqan aniqligi va hozirgi ijtimoiy hayotdagi muhim voqea-hodisalarga mos kelishi hisobga olinishi, til o`rganuvchilarining oldida paydo bo`ladigan turli xil qiyinchiliklarning bartaraf etilishida muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Eshitib tushunish ko`nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda o`qituvchining nutqi, auditiv texnikaviy qurollar yozuvi, radio eshittirish namunalari, audiovizual vositalardan ovozli kinofilm va ulardan parchalar, televizion ko`rsatuvlar va boshqa turdagi yozib olingan dialog yoki monologlar asosiy obyekt sifatida xizmat qiladi. Til o`rganuvchilarning tinglab tushunish malakasini hosil qilishda quyidagi mexanizmni juda ko`p tadqiqotchilar ilgari surishadi:



Til o'rganuvchining tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishda arab tili o'qituvchisining dars davomida arab tilida so'zlashi eng muhim namuna hisoblanadi. Darsni til o'rganuvchining darajasidan kelib chiqib arab tilida olib borish zarurdir. Chunki bu til o'rganuvchining tinglash ko'nikmasini shakllantiruvchi datslabki bosqich hisoblanadi. Bu tinglab tushunishning keyingi obyektlarini mukammalroq o'zlashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi obyekt bu eshitish ko'nikmasiga mo'ljallangan mashqlar tizimidir. Xorijiy til sun'iy muhitini yaratishga mo'ljallangan mashqlar tizimining aksariyat qismi tinglab tushunish ko'nikmasi bo'yicha bajariladi. Til o'rganuvchiga tinglab tushunish jarayonida quyidagilar o'rgatiladi: so'z, so'z birikmalari shakli va grammatik strukturasi farqlay olish, nutq namunasini tinglab oldindan uning asosiy mazmunini fahmlay olish, eshitish xotirasi hajmini o'stirish, o'rganilgan til materiallarini turli birikmalarda tushuna olish, texnikaviy vositalarga yozilgan nutqni tushunish, bir marta aytilgan fikrni fahmlash, tez aytilgan nutqni tushunish, audiomatnda leksik birliklar bo'lishiga qaramay, matning umumiy mazmun va mohiyatini ilg'ab olish va turli sohalarga oid audiomatnlarni tushunish.

Tinglanadigan matn tanish til materialida va qisman notanish leksik materialda bo'lishidan qat'iy nazar bir marta eshitib va tushunishga mo'ljallangan. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan o'tkazilayotgan arab tili bo'yicha CEFR imtihonlari topshiriqlarida ham eshitish qismidagi topshiriqlar B1 va B2 darajalarida ikki marta qo'yib eshittiriladi. C1 darajasida bir marta qo'yib eshittirilayapti. Bundan ko'rinadi-ki, til o'rganuvchining eshitib tushunish malakasi darajasi ko'tarilgan sari rivojlanib boradi.

TADQIQOT NATIJALARI

Eshitib tushunish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha oxirgi nashr qilingan kitoblarning الإستماع و الفهم bo'limiga qaraydigan bo'lsak, turli xil sohalarga oid tinglab tushunilishi kerak bo'ladigan matnning audio shakli berilgan. Audio shaklga oid mashqlar tizimi uch xil ko'rinishda beriladi. Mashqlarning barchasi maxsus mashqlar turiga oiddir. Audio matn uch marta qo'yib eshittirilishga mo'ljallangan. Birinchi marta qo'yib eshittirilgandan so'ng, unga tegishli bo'lgan birinchi mashqni bajaradi. Birinchi mashq asosan audiomatnda berilgan asosiy fikrlar jumla ko'rinishida topshiriq qilib beriladi. Jumlagaga tegishli bo'lgan bir dona so'zni topish vazifasi qo'yiladi. Va o'sha so'zga yaqin ma'noli so'zlar bilan topshiriq qilib beriladi. Masalan: تجارب حياتية nomli audiomatn berilgan. Birinchi topshiriqni vazifalaridan biri quyidagi beriladigan:




Audiomatnning bir joyida so'zlovchi qayerda arab tilini o'rganganini aytib ketadi. Topshiriq qilib berilayotgan jumlar audiomatnda aynan kelmaydi, balki o'sha mazmun beriladi. Ikkinchi marta eshitganidan keyin yana mashq beriladi. Ikkinchi marta audiomatni eshitganidan so'ng, ikkinchi mashq beriladi. Ikkinchi mashqda audiomatnda berilgan biron-bir fikr to'g'ri yoki noto'g'ri beriladi. Agar aynan matnda keltirilgan mazmun jumla shaklda

berilgan bo`lsa to`g`ri ma`nosini beruvchi alomat qo`yiladi. Agar noto`g`ri bo`lsa, o`sha jumla audiomatnda qanday kelgan bo`lsa uni mazmunini to`g`rilab yozish vazifasi yuklangan.

الطَّالِبُ يَعْرِفُ لُغَاتٍ أُخْرَى غَيْرَ الْعَرَبِيَّةِ .

Audiomatnda so`zlovchi universitetga o`qishga kirganidan so`ng ikkinchi til sifatida bitta tilni tanlash majburiyatini qo`yadi. Demak, bu maxzmun to`g`ri unga to`g`ri alomatini qo`yamiz. Bu ko`rinishdagi mashqlar til o`rganuvchining eshitib tushunish ko`nikmasidagi ziyrakligini va leksik bazasining shakllanganligini talab qiladi.

Uchunchi marta audiomatn eshittiriladi. Undan so`ng uchunchi mashq beriladi. Uchunchi mashqda til o`rganuvchi so`zlovchi aytgan jumalardagi mazmunga oid savollarga javob berishi ko`zda tutiladi. Har bir darsni o`tish chog`ida tinglab tushunishni o`rgatish bosqichlari quyidagi ko`rinishda bo`ladi:



MUHOKAMA

Tinglab tushunish ko`nikmasini shakllantirish va rivojlantirishda metodist yoki o`qituvchi tomonidan tuziladigan mashqlarning saviyasi va ularning maqsadiga bog`liqligi juda yuqoridir. Tinglab tushunishni o`rgatishning mashqlariga e`tibor bersak, dastlab tayyorlov mashqlari keladi. Tayyorlov mashqlari o`qituvchi eshitib tushunish matnini eshitish davomida til o`rganuvchi duch kelishi mumkin bo`lgan qiyinchilik va tushunmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida tuzadi. Nutq mashqlari esa, audiomatni eshitishga tayyorgarlik, uni eshitish va eshitganini tahlil qilishni o`z ichiga oladi. Nutqiy mashqlar muxovarani tinglash, eshitilgan muxovaraga mazmun jihatidan o`xshash bo`lganini mashq qilish, muxovaraning boshi, o`rtasi yoki oxirini eshitish, audiomatndagi biron-bir replikani kengaytirish, to`ldirish, fonoyozuvni eshitish, undagi voqea-hodisalarni aytib berish, diktor nutqini eshitish, kinofilm parchasini eshitib asosiy voqea-hodisalarni aytib berish va hokazo ko`rinishidagi mashqlarga bo`linadi.

XULOSA

Xulosa o`rinida shuni alohida ta`kidlash kerak-ki, hozirgi kunda O`zbekistonda xorijiy tillarni o`rganishga bo`lgan talab juda ham yuqori. Buni katta yoshli qatlamning ham tilni o`rganishga bo`lgan qiziqishining ortib borishi bilan izohlashimiz mumkin. Shuningdek, arab tilini o`rgatish va o`rganish tizimi so`nggi yillarda juda katta islohotlar natijasida o`zgarib,

takomillashib va zamon talablari asosida rivojlanib bormoqda. Birgina arab tilini o`rgatishda an`anaviy uslubdan voz kechilib, kommunikativ uslub yordamida o`rgatish ilgari surilgani fikrimizning yorqin bir namunasi bo`ladi. CEFR ko`nikmalarini o`rgatish, til o`rganuvchiga o`rganayotgan tilning nafaqat leksik, grammatik va tarjima sohalarini o`rganishi, balki, o`qib tushunish, eshitib tushunish, yozish va gapirish kabi ko`nikmalarini ham o`rganish vazifasini oldiga qo`yadi. Bu til o`rganuvchining xorijiy tillarni har tamonlama puxta o`rganishi va o`zlashtirishiga xizmat qiladi. Bizga CEFR mezonlari ma`lum bo`ldi, endi o`sha mezonlar asosida til ko`nikmalarini til o`rganuvchiga darajama-daraja o`rgatib borish, ularning to`rtta ko`nikmalarini asta-asta rivojlantirib borishni o`rgatuvchi zamonaviy o`quv materiallarini o`zimizning urf-odat va an`analarimizga asoslagan holda yaratish vazifasi turibdi. Kelajakda nafaqat arab tilida, balki O`zbekiston hududida o`rgatilayotgan boshqa tillarda ham yaratilsa, til o`rganuvchilarga xorijiy tillarni o`rganishda ma`lum qiyinchiliklarni bartaraf qilishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Jalolov J. Chet til o`qitish metodikasi. Toshkent-2012, 219-234-betlar.
2. Suvayfiy Fatxiy, Kamol Aliy, Sa`d Abdulloh. "Al-manxaju al-Alamiyyu" Silsilatu fiy ta`limi al-lug`ati al-a`rabiyyati li notiqiyina big`oyriha. Al-mutovasittu as-saniy B2. "Dar al-Sanabiyl" Turkiya-2021, 9-13-betlar.
3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Modern languages division. Strasbourg, 2001- p. 209-224.
4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment: Structured overview of all CEFR scales. – p. 17-34.